



SOCIAL AND ECONOMIC LIFE IN THE MITAN, FORISH, AND DARGOM DISTRICTS OF THE SAMARKAND REGION IN THE MID-20TH CENTURY (BASED ON ARCHIVAL DOCUMENTS)

Urol Nazarov

Basic Doctoral Student

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Mitan, Forish, Dargom, Red teahouse, Medical district, Feldsher-midwife station, Medical aid posts, Ishtikhon, Hero Mother.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.2

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the restoration and development of the socio-economic life in the 1950s in the Mitan, Forish, and Dargom districts based on archival documents. It is shown that the difficulties following World War II, resource shortages, and the deterioration of technical infrastructure led to a slowdown in production in these areas, particularly a decline in livestock productivity due to the failure to meet fodder production plans. Furthermore, the increase in the local budget of the Dargom district, as well as the provision of allowances and awards to large families, indicates the development of the social protection system. Special attention is also emphasized on the expansion of medical services to preserve the health of workers and improve labor productivity. The article reveals the complexity of the economic and social recovery process in these regions.

XX ASRNING O'RTALARIDA SAMARQAND VILOYATINING MITAN, FORISH VA DARG'OM TUMANLARIDA IJTIMOIIY - IQTISODIIY HAYOT (ARXIV HUIJJATLAR ASOSIDA)

O'rol Nazarov

Tayanch doktoranti

Sharof Rashedov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekistom

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Mitan, Forish, Dargʻom, qizil choyxona, vrachlik uchastka, Feldsher akkusher punkit, truppunkitlar, Ishtixon, qahramon ona.

Annatatsiya: Ushbu maqola XX asrning 50-yillarida Mitan, Forish va Dargʻom tumanlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning tiklanishi va rivojlanishini arxiv hujjatlar asosida tahlil qiladi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi qiyinchiliklar, resurs yetishmovchiligi va texnik bazaning eskirishi hududlarda ishlab chiqarishning sekinlashishiga olib kelgani, ayniqsa chorvachilikda yem-xashak ishlab chiqarish rejalarining bajarilmasligi natijasida mahsuldorlik pasaygani koʻrsatildi. Shuningdek, Dargʻom tumanida mahalliy byudjetning oshishi, koʻp bolali onalarga nafaqa va mukofotlar ajratilishi ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishidan dalolat beradi. Tibbiy xizmatlarning kengaytirilishi orqali mehnatkashlarning sogʻligini saqlash va ish unumdorligini oshirishga alohida eʼtibor qaratilgani taʼkidlanadi. Maqola hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy tiklanish jarayonining murakkabligini ochib beradigan.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ В МИТАНСКОМ, ФОРИШСКОМ И ДАРГОМСКОМ РАЙОНАХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В СЕРЕДИНЕ XX ВЕКА (НА ОСНОВЕ АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ)

Ўрол Назаров

Соискатель степени PhD

Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Митан, Фориш, Даргом, Красная чайхана, Врачебный участок, Фельдшерские пункты, Иссыкхон, Герой-мать.

Аннотация: Данная статья анализирует восстановление и развитие социально-экономической жизни в 1950-х годах в районах Митан, Фориш и Даргом на основе архивных документов. Показано, что после Второй мировой войны сложности, нехватка ресурсов и устаревшая техническая база привели к замедлению производства в регионах, особенно снижение продуктивности в животноводстве из-за невыполнения планов по заготовке кормов. Также отмечается увеличение местного бюджета Даргомского района, выделение пособий и наград многодетным матерям, что свидетельствует о развитии системы социальной защиты. Подчеркивается особое внимание к расширению медицинского обслуживания рабочих для

сохранения их здоровья и повышения производительности труда. Статья раскрывает сложность экономического и социального процесса восстановления в регионах.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng eng dolzarb vazifa mamlakatning vayron bo'lgan xo'jalik tizimini tiklash, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini qayta ishga tushirish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishdan iborat edi. Bu siyosat nafaqat markaziy hududlarda, balki O'zbekiston va uning viloyatlarida ham iqtisodiy hayotning mazmun-mohiyatini belgilab berdi. Rasmiy hujjatlarda bu rejaning maqsadlari aniq belgilangan bo'lsa-da, tumanlar kesimidagi arxiv materiallari ushbu jarayonning amaliyotda turlicha kechganini ko'rsatadi. Xususan, ayrim hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari tiklash jarayoni resurs yetishmasligi, texnik bazaning eskiligi va mehnat kuchi bilan bog'liq qiyinchiliklar tufayli sekin kechgani kuzatiladi. Shu jihatdan, Miton, Forish va Darg'om tumanlari bo'yicha mavjud arxiv hujjatlari rasmiy rejalashtirish bilan mahalliy sharoitlar o'rtasidagi ayrim nomuvofiqliklarni ochib beradi va iqtisodiy tiklanish jarayoni bir xil sur'atda kechmaganini ko'rsatadi.

1926-yildan boshlab Miton alohida tuman sifatida tashkil etilgan bo'lib, Miton qishlog'i (yoki shaharchasi) uning ma'muriy markazi vazifasini bajargan. Miton 1926–1958 yillarda Miton tumanining markazi bo'lgan. 1958-yilda Miton tumani tugatilgach, u Ishtixon tumani tarkibiga kiritilgan.[1] 1958-yilda o'tkazilgan ma'muriy-hududiy islohotlar natijasida Miton tumani tugatilgach, uning hududi Ishtixon tumani tarkibiga kiritilgan. Ushbu o'zgarishlar o'sha davrda viloyat miqyosida olib borilgan boshqaruvni markazlashtirish jarayonining bir qismi bo'lib, aholi zichligi, iqtisodiy salohiyat va hududiy resurslarning qayta taqsimlanishi bilan izohlanadi.

Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, 1946–1947 o'quv yilining yakunlari Miton tumani ta'lim tizimi uchun qoniqarli darajada bo'lmagan. Hisobotlarga ko'ra, yil davomida 702 nafar bola umuman maktabga jalb qilinmagan.[2] Bu esa urushdan keyingi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, aholining mehnatga ortiqcha jalb etilishi hamda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yetishmasligi bilan izohlanadi. Shuningdek, 191 nafar o'quvchining o'qishni tark etgani tumanda maktablar faoliyatining barqaror emasligini, o'quvchilarning davomati past bo'lganini va oilalarning iqtisodiy sharoiti o'qish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi.

Arxiv hujjatlarida keltirilishida tuman markazidagi yo'l, ko'priklarni tuzatish, yangi ko'priklarni qurish, daraxt ekish, elektirlashtirish, bog'ni tuzatish va boshqa shunga o'xshash obodonchilik tadbirlarini o'tkazish uchun davlat tomonidan 90 ming so'm pul berilgan bo'lsada, bu puldan foydalanish uchun jiddiy ishlar qilinmayotganligi aytib o'tilgan.[3] Bundan tashqari rayondagi 9 ta qishloq sovetida Qizil choyxona ochish uchun 57 ming so'm pul berilgan bo'lsada,

shu kungacha bironta qishloq sovetida ham deyarli choyxona ochilmaganligi qayd etilgan. [4] Ajratilgan mablag'dan foydalanishda yuzaga kelgan bu to'siqlar qishloq joylarida ijtimoiy-madaniy infratuzilmaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, aholining dam olish va ijtimoiy uchrashuvlar uchun zarur bo'lgan markaziy maskanlarning yetishmasligi qishloq hayotining sifatiga ta'sir qilgan. Shuningdek, bunday muammolar hududiy boshqaruvdagi rejalashtirish va nazorat mexanizmlarining zaifligi, shuningdek, moliyaviy mablag'larni maqsadsiz sarflash bilan bog'liq ekanligi taxmin qilinadi.

Forish tumani soveti hisobotlarida yozilishicha 1947 – yilda budjetni daromad va xarajat qismlari o'z vaqtida bajarilmasdan, 5-6 oylab qishloq sovetlari oyliklarini olmasdan kelayotganligi qayd etilgan.[5] Bu moliyaviy muammolar mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy resurslarni yetarlicha samarali boshqara olmasligini ko'rsatadi hamda hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bunday moliyaviy qiyinchiliklar hududning iqtisodiy tiklanish jarayonini sekinlashtirganligini ko'rishimiz mumkin. Chorvachilikda 1947 - yilda yem - xashak tayyorlash plani 287728 tonna deb belgilangan ammo 54870 tonna bajarilgan.[6] Bu esa, o'z navbatida, chorvachilikda oziqlantirish darajasining pasayishiga hamda unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yem-xashak ishlab chiqarishdagi yetishmovchilik chorvachilik sohasidagi mahsuldorlikni kamaytirib, go'sht va sut yetishtirishdagi pasayishlarga sabab bo'ldi. Bu holat, o'z navbatida, oziq-ovqat ta'minotida muammolar yuzaga keltirgan va mahalliy aholi uchun chorvachilik mahsulotlarining kamayishiga olib kelgan.

Manbalar ko'rsatishicha, Darg'om tumani mahalliy budjeti 1939 – yilda 3 mln 451 ming so'm bo'lsa, 1946 –yilda 4 mln 300 ming so'mga oshdi, ya'ni umumiy hajmi 46.3 % tashkil qiladi. Davlat nafaqalari 1939 –yilda 41 onaga 94 ming so'm to'langan xolda, 1947 –yilda esa 416 ta onaga 851 ming so'm to'langan. Shuningdek, 121 ta ko'p bolali onalardan 55 tasi mukofatga taqdim etilgan. Shundan bittasi – “ Qahramon ona ” unvonini olgan va 44 tasi orden va medallar bilan mukofatlangan.[7] Mahalliy byudjetning sezilarli darajada oshishi va nafaqa tizimidagi kengayish Darg'om tumanida ijtimoiy himoya choralari kuchayganligini ko'rsatadi.

Arxiv materiallariga ko'ra, Darg'om tumanida shu yillarda mehnatkashlarga tibbiy xizmat sohasida yordamlashish kuchaytirilgan. Qishloqlarda vrachlik uchastkalar soni 5 taga yetkazilgan. Feldsher- akkusher punktlari soni 7 ta, tibbiy punktlar soni 5 taga yetkazilgan. Va shu manbalar vositasi bilan mehnatkashlarning salomatligini saqlash ustida ancha g'amxurliklar qilinganligi qayd etilgan. [8] Ushbu o'zgarishlar orqali tuman aholisi, ayniqsa mehnatkash qatlamning sog'ligini saqlash va ularni kasalliklardan himoya qilishga alohida e'tibor qaratildi. Manbalar ta'kidlashicha, tibbiy xizmatlarni rivojlantirish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilib, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi oshirildi. Bu esa o'z navbatida mehnatkashlarning ish unumdorligini yaxshilashga va ularning hayot sifatini oshirishga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 50-yillarida Mitn, Forish va Dargʻom tumanlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning tiklanishi va rivojlanishi murakkab va koʻp qirrali jarayon boʻldi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi qiyinchiliklar, resurs yetishmovchiligi va texnik bazaning eskirishi hududlarda ishlab chiqarishning sekinlashishiga sabab boʻldi. Ayniqsa, chorvachilikda yem-xashak tayyorlash rejalarining amalda bajarilmasligi ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Shunga qaramay, Dargʻom tumanida mahalliy budjetning sezilarli oʻsishi va davlat tomonidan koʻp bolali onalarga ajratilgan nafaqalar hamda mukofotlar ijtimoiy himoya tizimining mavjudligidan dalolat beradi. Tibbiy xizmatlarning kengaytirilishi mehnatkashlarning sogʻligini saqlashda muhim rol oʻynadi va ish unumdorligini oshirishga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. VI tom. Toshkent - 2003. 28 –b
2. Samarqand VDA 74 - fond, 1-roʻyxat, 1742-ish, 1-varaq
3. Samarqand VDA 74 - fond, 1-roʻyxat, 1742-ish, 3-varaq
4. Samarqand VDA 74 - fond, 1-roʻyxat, 1742-ish, 4-varaq
5. Samarqand VDA 74 - fond, 1-roʻyxat, 1734-ish, 2-varaq
6. Samarqand VDA 74 - fond, 1-roʻyxat, 1734-ish, 8-varaq
7. Samarqand VDA 74 - fond, 1-roʻyxat, 1740-ish, 3-varaq
8. Samarqand VDA 74 - fond, 1-roʻyxat, 1740-ish, 4-varaq